



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
ILG'OR MUHANDISLAR VA ARXITEKTORLAR:
BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN ILM-FAN VA TA'LIMNI
MODERNIZATSIYA QILISH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

**“ILG'OR MUHANDISLAR VA ARXITEKTORLAR: BARQAROR RIVOJLANISH
UCHUN ILM-FAN VA TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH”**

mavzusidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining
universitet maqomga erishganligining 2-yilligiga bag'ishlangan
II-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

A X B O R O T X A T I

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 2-yilligiga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-416-sonli “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosidan kelib chiqib, 2024-yilning 8-noyabr kuni **“Ilg'or muhandislar va arxitektorlar: barqaror rivojlanish uchun ilm-fan va ta'limni modernizatsiya qilish”** mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkaziladi.

Xalqaro anjuman quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'z ishini olib boradi:

-arxitektura, shaharsozlik, dizayn sohalarida mavjud muammolarning ilmiy-amaliy yechimlari;

-madaniy meros ob'yektlarini asrash va regeneratsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan istiqbolli islohotlar;

-qurilish, mexanika, atrof-muhit, mehnatni muhofaza qilish va salomatlik, geomatika muhandisliklari tizimlari muammolarning ilmiy-amaliy yechimlari va istiqbollari;

-iqtisodiyot va muhandislik sohalarida boshqaruv tizimini transformatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari;

-kompyuter grafikasidan foydalanishning xalqaro tajribalari va tizimni takomillashtirish muammolari

-arxitektura va muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning muammmo va yechimlari hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish tajribalari.

Maqolalarga qo'yiladigan talablar:

1. Anjuman materiallari elektron fayl shaklida Word 2007, 2010 (.rtf) formatida Times New Roman, 11 kegl, satrlar oralig'i 1 interval, rasmlar jpg formatda sifatli, sahifalar har tarafdin 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.

2. Birinchi qatorda, sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi, 2-qatorda muallif(lar)ning familiyasi, ismi, sharifi, 3-qatorda ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, muallif(lar)ning elektron pochta yoki telegram raqami yoziladi.

3. Bir interval tashlanib, 5-6 qatorda maqola annotatsiyasi beriladi.

4. Annotatsiyadan so'ng 8-10 ta kalit so'zlar keltirilishi shart.

5. Asosiy matn kalit so'zlardan keyin bir interval tashlab yoziladi. Satrlar oralig'i 1,0 intervalda, satr boshi – 0.5sm bo'lib, satrlar eniga to'g'rilangan, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish - avtomatik tarzda

bo'lishi lozim.

6. Adabiyotlar ro'yxati asosiy matndan so'ng matndagi ketma-ketlikda ko'rsatilishi, adabiyotlar ro'yxatida kamida 5 ta adabiyot bo'lishi, ulardan 2 tasi so'nggi 5 yil davomida chop etilgan yangi ilmiy adabiyotlar, shulardan kamida 1 tasi xorijiy adabiyotlar bo'lishi lozim.

7. Manbaga havola (ssilka)lar asosiy matn ichida [1] ko'rinishda bo'lishi lozim.


8. Taqdim etilayotgan maqolalar hajmi 5-6 betdan oshmasligi kerak. Maqola faylida yo'nalish raqami va muallif familiyasi yoziladi (Masalan: 1.Aliyev.rtf).

9. Anjuman materiallari o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Maqolalar anjuman yo'nalishlariga oid dolzarb mavzularda, muallif(lar)ning shaxsiy izlanishlari natijalari, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida, ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga qamrab olgan, ilmiy, texnik va stilistik tahrir qilingan, muallif anketasini to'ldirgan holda taqdim etilishi lozim. Maqolaning mazmuniga va ko'rsatilgan manbalarning to'g'riligiga muallif mas'uldir. Tashkiliy qo'mita maqolalarni tanlab olish huquqiga ega.

Konferensiyaning rasmiy tillari: o'zbek, rus va ingliz.

Barcha konferensiya ishtirokchilariga **QR kodli sertifikat** beriladi.

Konferensiyada ishtirok etishni xohlovchilar **5-6 sahifa** hajmdagi va puxta tahrirlangan materiallarini **2024-yil 5-noyabrga qadar u.malikov@samdaqu.edu.uz** elektron manziliga yoki **+998 (33) 772-52-00** (Malikov Ulug'bek) telefon raqamidagi  telegram messenjeriga elektron ko'rinishda taqdim etishlari lozim. Bitta muallifdan 2 ta dan ortiq maqola qabul qilinmaydi.

Belgilangan talablarga javob bermaydigan va kechikib topshirilgan maqolalar to'plamga kiritilmaydi hamda muallifga qaytarilmaydi. Anjuman materiallariga taqdim qilinayotgan maqolalar **IMRAD** strukturasi taqdim qilinishi lozim. Belgilangan talablarga javob bergan ilmiy maqolalar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan **“Me'morchilik va qurilish muammolari”** ilmiy-texnik jurnalining **maxsus sonida** nashr etiladi. Shuningdek, konferensiyaga yuborilgan ilmiy maqolalar to'plamining elektron nashri barcha mualliflarga yetkaziladi.

Anjuman materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalarning har biri **Google scholar** tizimiga indekslanadi. Maqolalarni elektron jurnalda chop etish narxi **150 000** so'mni tashkil etadi.

Murojaat uchun tashkiliy qo'mita manzili: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi 70-uy. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ilmiy tadqiqotlar va loyihalar kordinatorligi, telefon (+998 66) 237-18-47.

Koordinator: **Dilnoza Kamalova (+998 93 727 29 63)**

Mas`ullar: **Perviz Ahmedzade**

Usmon Xushvaqtov

Ilhom Maxmatqulov

Mas`ud Eshmurodov

Javlon Suyunov